

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ARIFMETIK AMALLAR TUSHUNCHASI VA UNI O'RGANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14056621>

**Musurmonova Maludaxon**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*"Boshlang'ich ta'limda matematika va tabiiy fanlar"*

*kafedrası katta o'qituvchisi,*

**Boqiyeva Xumora**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*"Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 2-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanidan arifmetik amallar mavzusini oson va esda qolarli darajada tushuntirish uchun didaktik va ko'satmali materiallardan foydalanish kerakligi va bolalarning ushbu mavzuga munosabati bayon qilinadi. O'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslik uchun mavzularni turli xil usullarda tushuntirish haqida so'z boradi.

### **Аннотация**

В данной статье необходимо с помощью дидактических и методических материалов в доступной и запоминающейся форме объяснить учащимся начальных классов тему арифметических действий в математике, а также описано отношение детей к этой теме. Речь идет о объяснении тем по-разному, чтобы не утомлять студентов.

### **Abstract**

In this article, it is necessary, with the help of didactic and methodological materials, to explain the topic of arithmetic operations in mathematics to primary school students in an accessible and memorable form, and also describes the attitude of children to this topic. It's about explaining topics in different ways so as not to bore students.

### **Kalit so'zlar**

Arifmetik amallar, metodika, pedagogik mahorat, zamonaviy texnologiyalar, dars.

### **Ключевые слова**

Арифметические действия, методика, педагогическое мастерство, современные технологии, урок.

**Key words**

Arithmetic operations, methodology, pedagogical skills, modern technologies, lesson.

Boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchilar hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Endigina yetti yoshga to'lgan va shu yoshga qadam qo'ygan bolalar juda ham o'yinqaroq va juda sho'x bo'lishadi. Ularni darslarga qatnashtirish va biror bir vazifalarni bajartirish juda ham mushkul. Ular sho'x bo'lgani bilan bir qatorda juda ham qiziquchan, ziyrak va tirishqoq bo'lishadi. Bolalarning bu harakatlarini to'g'ri yo'naltirgan holda, ularni toliqtirib qo'ymagan holda darslarga qatnashtirish zarur. Endigina harflarni va raqamlarni o'rganayotgan bolalarga matematika fanidan hisob - kitoblarni va narsalarni ko'payishi va kamayishini arifmetik amallar yordamida tushuntirib o'tiladi. Arifmetik amallar matematika fanining asosiy qismi hisoblanadi.

Arifmetika tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "Son" va "sonli to'plamlar" degan ma'nolarni anglatadi. Matematikaning bu qismini qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish tashkil qiladi. Sonlar yordamida beriladigan misol va masalalar o'ziga xos sodda usullarda yechiladi va kelgusida matematikani chuqur o'rganishga zamin bo'ladi. Arifmetika deganda son tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, hisoblash usullari va hisoblash qurollarining takomillashuvi va turli tarzdagi sonlar bilan amallar bajarilishi tushiniladi. Sonlar bilan mantiqiy mulohazalar yuritishga urg'u berilganda nazariy arifmetika tushunchasi ishlatiladi. Butun sonning xususiyatlari sonlar nazariyasida o'rganiladi. Arifmetika tushunchasi har xil buyumlar, narsalar ustida amallar bajarish zarurati tug'ilganda ham ishlatiladi. Arifmetika fani algebra bilan uzviy bog'liq.

Arifmetika qadimda odamlar barmoqlari yordamida sanash va hisoblashni boshlagan paytlarida paydo bo'lgan. Keyinchalik hisoblash va sodda o'lchov ishlarini amalga oshirish natijasida arifmetika tez rivojlangan. Ayniqsa, pul paydo bo'lgandan so'ng, pul hisobi va ishlab chiqarish vositalarining ko'payishi bilan bog'liq. Biz matematika fanini va yashab turgan borlig'imizni arifmetik amallarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ayniqsa, hisob-kitobda juda ham zarur. Endigina rivojlanib kelayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallar tushunchasini qay tarzda tushuntiramiz degan savol tug'uladi? Eng birinchi navbatda bolajonlarga boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'shish, ayirish,

ko'paytirish va bo'lish amallarini qay tarzda yozish kerakligini tushuntirib o'tishadi.

Gorizantal va vertikal chiziqchalarning kesishishidan qo'shish amali hosil bo'ladi. Endi bolajonlar bu holatni katak daftariga yozib qo'shish amalini yozishni o'rganadi. Qo'shish amali shaxs va narsalarning son sanog'ini ko'payganligini bildiradi. Masalan, bolajonlar likopchada 5 ta olma bor edi. Oimjon unga yana 6 ta olma qo'shdi. Savol: likopchadagi olmalar soni nechta bo'ldi? Endi biz bu masalani javobini topish uchun qo'shish amaliga yuzlanamiz.

Yechish: Bor edi- 5 ta

Qo'shildi – 6 ta

Bo'ldi - ? ta

$5+6=11$ . Javob: Likopchada 11 ta olma bo'ldi.

Ayirish amalini ham yozishni o'rganamiz, daftar katagining o'rtasidan gorizantal chiziq o'tkazamiz va bizga (-) mana shu holatdagi chiziq hosil bo'ladi. Bu holatdagi yozuv ayirish amali hisobladi. Ayirish amali shaxs va narsalarning son sanog'ini kamayganligini anglatadi.

Masalan: Kitob javonida 10 ta kitob bor edi. Karim uyga vazifalarini tayyorlash uchun 4 ta kitobni oldi. Savol: kitob javonida nechta kitob qoldi?

Yechish: Bor edi -10 ta

Kamaydi - 4 ta

Qoldi -? ta

$10-4=6$ . Javobi: Kitob javonida 6 ta kitob qoldi.

Ko'paytirish amalini ham yozilishiga etibor beramiz. Katakli daftarimizning bitta katakchasining o'rtasiga nuqta (.) belgisini qo'yamiz. Bu belgi bizning matematika fanimizda ko'paytirish belgisi hisoblanadi. Ko'paytirish belgisini bosma tarzda (x) shaklida yozsak ham bo'ladi. Ko'paytirish amali shaxs va narsalarning son sanog'ini miyordan ko'payganini anglatadi.

Masalan: Ominada 3 ta ruchka bor edi. U bu ruchkalari sonini 2 marta ko'paytirdi. Savol: Ominaning ruchkalari soni nechtaga yetdi?

Yechish: Bor edi-3 ta

Ko'paydi - 2 marta

Hosil bo'ldi - ? ta

$3 \times 2 = 6$ . Javobi: Olimada 6 ta ruchka bo'ldi.

Bo'lish amalini ham yozishni o'rganib olamiz. Katak daftarimizning bitta katagiga ikkita nuqta (: )ni yozamiz. Bu matematikada bo'lish amali deyiladi. Bo'lish amali butun bir narsaning ma'lum bir qismini bildiradi. Masalan: Diyorada

4 ta nok bor edi. U noklarini teng ikkiga bo'lib, bo'lingan noklarning bir qismini singlisiga berdi. Savol: Diyorada nechta nok qoldi?

Yechilishi: Bor edi-4 ta

Bo'lib berildi- 2 qismga

Qoldi - ? ta

$4:2=2$ . Javobi: Diyoraga 2 ta nok qolgan.

Arifmetik amallar mavzusini mustahkamlash maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilari bilan "Aqliy hujum" mashqini o'tkazish mumkin. Bu mashq yordamida o'qituvchi bolalarning qay darajada ziyrakligini, eslab qolish darajasi qanchaligini, nechta o'quvchi mavzuni o'zlashtira olmaganligini aniqlab olishi mumkin. Bu mashq o'tirgan o'quvchilarga aqliy hujum qilgan holda xohlagan o'quvchiga mavzu yuzasidan savollar berib boriladi va shu tariqa xulosa chiqarib olinadi. Savollarga yaxshi javob bera olmagan bolajonlarimizni o'qituvchi o'zining shaxsiy kundaligiga belgilab qo'yadi. Bu o'quvchilar bilan alohida shug'ullanadi yoki dars davomida ularga qayta takrorlagan holda tushunchalar berib boriladi.

Boshlang'ich sinf bolalari o'suvchan bo'lganligi sababli ularning bir joyda qimirlamasdan bir xil vazifalarni bajarishi yoki to'xtovsiz holda yozuv yozishi ularning salomatligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun 45 minut dars davomida o'quvchilarga 1 yoki 2 marotaba dam olish daqiqalari o'tkazib turilishi zarur. Bunday dam olish daqiqalariga misol qilgan holda shu she'rni keltirishimiz mumkin.

Daraxtda olmalar

Qip-qizarib pishibdi,

Silkitibdi shamollar,

Yerga to'p-to'p tushibdi.

Bu dam olish daqiqasini bolalar o'rnidan turgan holda qo'l va oyoqlarini qimirlatib bajaradi.

Dars o'tish jarayonida bolalar bilan ishlash o'qituvchilardan juda katta mahorat va malakani talab qiladi. Bolalarga odatiy uslubda emas, balki noodatiy dars o'tish uslubini qo'llash ko'proq samara beradi. Noodatiy dars o'tish uslubi deganda o'qituvchi darsga kelib yo'qlama qilishi, uyga vazifani tekshirishi va yangi mavzuni o'tib chiqib ketishi emas, balki biroz takomillashgan holatda o'qituvchilar ko'proq zamonaviy texnologiyalar (elektron doskalar, kompyuterlar) bilan ishlashi, bolalar bilan ko'proq munosabatda bo'lishi, darslarini yangi tashkil qilingan metodikalar bilan o'tishi kerak. Mana shu tartibgina o'quvchilarning kelajagi poydevorini qurib bera oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narimbetova Z.A., Urinbayeva Z. M. (2020) Maktabda matematika darslarini o'qitishda mental arifmetikaning ahamiyati. Fizika, matematika va informatika, jurnal,2. 100-103.
2. M.Musurmonova M. Matematika o'qitish metodikasi, 2023- y. "Zebo prins", Chirchiq.
3. O'rinboeva L., Jumayev M.E., Ruzikulova N., Raxmonov U., Ismailov Sh., Ismailova N., Usmonova N. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Kolorpak" MCHJ bosmaxonasi 2021 yil.
4. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда инновациялар. *Academic research in educational sciences*, (3), 789-795.
5. Musurmonov, R., & Musurmanova, M. (2020). Innovations in the development of professional competence of teachers. *Academic research in educational sciences*, (3), 777-783.
6. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 223-231.
7. Musurmonov, R., & Musurmonova, M. (2021). Globallashuv sharoitida maktab darslarining intizomiy omillari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1268-1274.
8. Musurmonova, M. (2021). Methods of teaching length and surface units for primary school students. *Экономика и социум*, (8), 302-311.
9. Musurmonova, M. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzunlik va yuza o'lchov birliklarini o'rgatish usullari. *Экономика и социум*, (8 (87)), 302-311.
10. Musurmonova, M. (2021). To'plam tushunchasi. to'plamlar ustida amallar bajarish. *Экономика и социум*, (8 (87)), 292-301.
11. Musurmonov, R., Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Geometriya fani va uning rivojlanish davrlari tarixi haqida. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 911-915.
13. Musurmonova, M., Quzmanova, G., & Allayarova, S. MATNLI MASALALARNI ARIFMETIK USULDA YECHISHNING BA'ZI TATBIQLARI.

14. Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida massa, sig'im va vaqt o'lchov birliklari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 281-289.